

## NOAN'ANAVIY RASM CHIZISH USULLARINING QIZIQARLI JIHLTLARI

Abdubannonova Bibixojar Iqboljon qizi

Qo'qon univertseti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

+998 90 084 02 02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20355258>

**Annotatsiya:** Noan'anaviy rasm chizish usullari ayniqsa hozirgi san'atda o'ziga xos o'rin tutadi. Maqolada noan'anaviy usullar, ularning tarixi, xususiyatlari, ijodiy jarayonlari va san'at asarlarida qanday qo'llanilishi haqida ma'lumot yozdim. Maqola davomida turli noan'anaviy usullar, ularning ijtimoiy va madaniy ahamiyati, zamonaviy san'atda o'zgarishlarni yozdim.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, ijodkorlik, estetik tarbiya, qum san'ati, monotipiya, grataj, bolalar ijodiyoti, tasavvur, san'at terapiyasi, vizual tafakkur, interaktiv ta'lim,

**Аннотация:** Нетрадиционные методы живописи занимают особое место в современном искусстве. В статье я писала о нетрадиционных методах, их истории, характеристиках, творческих процессах и способах их применения в произведениях искусства. На протяжении всей статьи я рассматривала различные нетрадиционные методы, их социальное и культурное значение, а также изменения в современном искусстве.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, творчество, эстетическое воспитание, песочное искусство, монотипия, граттаж, детское творчество, воображение, арт-терапия, визуальное мышление, интерактивное обучение.

Rasm chizish san'ati ilgari tan yangi qadimiy faoliyatlardan biridir. Qadimda insonlar o'z fikirlarini his-tuyg'ularini rasm tizish orqali ifodalashgan. An'anaviy rasm chizish ko'plab rassomlar tomonidan ishlatib kelinmoqda. Lekn hozirgi zamonda o'zgarishlar katta, shu bilan birgalikda rasm chizishning ham noan'anaviy usullar paydo bulmoqda. Lekn noan'anaviy rasm chizish usullarining qiziqarli joylari ham bor. Noan'anaviy rasm chizish usullaridan biri abstrakt san'ati- shakllar va ranglar orqali his-tuyg'ularini ifodalash mumkin. Yana ranglar va geometrik shakllar bilan foydalaniladi. Abstrakt sanati XX asrda paydo bo'lgan V.Kandinski, P.Mondrian, va M.Rothkolar kabi rassomlar tomonidan rivojlantirilgan. Abstrakt san'ati rasmlarni ma'nosi ko'pincha muxlislarni his-tuyg'ulari va tajribasiga bog'liq. Misol: M.Rothko o'zining asarlarini ranglar orqali xis tuygularini ifodalashga uringan. M.Rothko "rangli maydonlar" seriyasi tomoshabinni chuqur his-tuyg'ular bilan bog'laydi.

Kolaj sanati - bu turli materiallar vajisimlarni birlashtirib, yangi san'at asarini yaratish xisoblanadi. Kolojka usuli qogoz mato rasmlar va jisimlar, boshqa narsalan orqali his tuyguni ifodalash mumkin. Pablo.Picasso koloj usulini o'z yozgan kitoblarida qullashni aytb ketgan. Masalan "Still Life with Chair Caning" asari koloj usuliga misol. U turli materiallarni birlashtirib, an'anaviy san'atga yangilik kiritgan

Graffiti sanati – bu sanat turi ko'cha sanati shakli bo'lib, kopincha ijtimoiy va siyosiy fikirlarni qo'llaniladi. Graffiti rassomlar ko'cha devoriga rang-barang rasmlar va yozuvlar chizishadi. Boshqa san'at shakllaridan boshqacha bo'ladi. Bu san'at turi ko'pincha omma uchun ochiq va erkin ifodalash sifatiga qaraladi. Mashhur graffiti san'atkorlari Banksy va Jean-Michel Basquiatdir. Masalan; "Girl with Balloon" asari ya'ni rasmi zamonaviy san'atda ijtimoiy muammolarni yoritish uchun vosita hisoblanadi.

Raqamli san'at Raqamli san'at - bu kompyuterda yaratiladigan san'at asarlar hisoblanadi. Raqamli san'atda animatsiya, interaktivlik qo'llaniladi. Raqamli san'atkorlar o'z asarlarida yangi

texnologiyalarni qo'llash orqali innovatsion yechimlar yaratishga intiladi. Masalan; "Beeple" nomli sanatkorning asarlarida qolaniladi va o'zining raqamli grafikasi bilan mashxur bulgan.

Noan'anaviy rasm chizish usullari san'atkorlarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkonini beradi. Ular an'anaviy qoidalardan chetga chiqib, yangi texnikalar va uslublarni o'zlashtiradilar. Va bu san'atda yangi yo'nalishlar keltirib chiqaradi. San'atkorlar o'z asarlarida yangi materiallar va texnologiyalarni qo'llash orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini kengaytiradilar. Noan'anaviy usullar ko'pincha ijtimoiy muammolarni yoritish va tanqidiy fikrlar ifodalanishida qo'llaniladi. San'atkorlar o'z asarlarida adolat, tenglik va boshqalar kabi masalalarni ko'taradilar. Masalan, Banksy tomonidan yaratilgan graffiti asarlari ko'pincha siyosiy kritikalar sifatida qaraladi. Masalan, Jean-Michel Basquiat asarlarida adolat va irqiy tenglik masalalari yoritilgan. Har bir san'atkorning noan'anaviy usuli o'ziga xos va boshqa san'atkorlardan farq qiladi. Bu esa san'at asarlarining rang-barangligini va xilma-xilligini ta'minlaydi. Har bir asar o'zining o'ziga xos hikoyasini aytadi va rasomlarni ichki dunyosini aks ettiradi. Noan'anaviy usullar va zamonaviy usullarning farqi zamonaviy san'atda noananaviy usullar yaxshi qaraladi. Ular rasomlarga o'z asarida zamonaviy qilib his tuygularini va filirlarini ochiq ifodalashga yordam beradi.

Bunday usullar orqali rasomlar o'z asarlarida ijtimoiy va siyosiy masalalarga e'tibor qaratishadi Zamonaviy san'atda innovatsiyalar katta rol o'ynaydi. Rasomlar yangi texnologiyalar va materiallardan foydalanib, o'z asarlarini yaratadilar. Raqamli san'at va interaktiv san'at asarlari ushbu innovatsiyalar natijasida yuzaga kelgan. Masalan; 3D modellashtirish va virtual haqiqat texnologiyalar rasomga o'z rasmlarini yaratish imkoniyatlarini beradi.. San'at va texnologiya-Raqamli san'at virtuval haqiqat, va 3D modellashtirish sanatkorga keng imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalar yordamida rassomlar o'z asarlarini yanada qiziqarli holga olib kelgan. Masalan; raqamli rassomlar o'z sanatlarini internet orqali odamlarga ulashgan va ko'plab tomoshabinlarga bu juda yoqqan.

Noan'anaviy rasm chizish usullari san'at olamida yaxshi va muhim o'rin egallaydi. Ular Rasomlarga yangi imkoniyatlar yaratadi va o'z fikrlarini erkinlik ifodalashda yordam beradi. Bu usullar orqali rasomlar o'z asarlarida zamonaviy muammolarni, his-tuyg'ularni va fikrlarni yoritadilar. Noan'anaviy usullar san'at olamiga yangiliklar kiritadi va yaxshi jarayonlarni boyitadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. АЗИМОВА М. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Yo'ldoshev Q. Bolalar ijodiyotini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2019.
4. Комарова Т.С. Детское художественное творчество. – Москва: Просвещение, 2017.
5. Nikitina A.V. Нетрадиционные техники рисования в детском саду и школе. – Санкт-Петербург: Детство-Пресс, 2021.
6. Sodiqova Sh. Estetik tarbiya va tasviriy san'at. – Toshkent: Tafakkur, 2016.
7. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – Москва: Владос, 2015.
8. Qosimov I. Tasviriy faoliyat orqali ijodkorlikni shakllantirish. – Samarqand, 2022.
9. Lowenfeld V., Brittain W. Creative and Mental Growth. – New York: Macmillan, 1987.
10. Eisner E.W. The Arts and the Creation of Mind. – Yale University Press, 2002.
11. Gombrich, E. H. (1995). The Story of Art. Phaidon Press.
12. Elkins, J. (2001). Why Art Cannot Be Taught. University of Illinois Press.

13. Barr, A. (1956). Cubism and Abstract Art. Museum of Modern Art.
14. Crow, T. (1996). The Rise of the Graphic Novel. University of California Press.